



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Sunnatov Zafar Ubaydullayevich,

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tadqiqotchisi.

E-mail: zafarsunnatov727@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v19iA.1759>

MAQOLA HAQIDA/O STAT'YE

Qabul qilindi: 17-avgust 2026-yil

Tasdiqlandi: 19-avgust 2026-yil

Jurnal soni: 19-A

Maqola raqami: 7

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

pedagog, faoliyat, psixolog, tayyorgarlik, kasb, kompetensiya, empatiya, refleksiya, motivatsiya, stress, bardoshlilik, kognitiv jarayon, sifat, natija

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonining psixologik jihatlarini, ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni hamda pedagogik faoliyat samaradorligiga ta'siri yoritilgan. Zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchining kasbiy faoliyati faqatgina nazariy bilim va metodik ko'nikmalarni egallash bilan cheklanmay, balki yuqori darajadagi psixologik tayyorgarlikni ham talab qilishi asoslangan. Xususan, pedagogning murakkab va o'zgaruvchan ta'lim muhitiga moslashishi, turli pedagogik vaziyatlarda mustaqil va oqilona qaror qabul qilishi, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishi, emotsional holatini boshqarishi hamda o'z kasbiy faoliyatini muntazam tahlil qilishi muhim psixologik omillar sifatida ko'rib chiqilgan. Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning psixologik tayyorgarligi kognitiv, emotsional-irodaviy, ijtimoiy-psixologik va refleksiv komponentlarning o'zaro bog'liqligi asosida tavsiflangan. Kognitiv komponent doirasida tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarining ahamiyati ochib berilgan. Emotsional-irodaviy komponent orqali stressga bardoshlilik, emotsional barqarorlik, sabr-toqat va o'zini boshqarish ko'nikmalarining pedagogik faoliyatdagi o'rni asoslangan. Ijtimoiy-psixologik komponent doirasida empatiya, tolerantlik, kommunikativ kompetensiya, hamkorlik va konfliktlarni konstruktiv hal qilish qobiliyatlariga e'tibor qaratilgan. Refleksiv komponent esa o'z faoliyatini tahlil qilish, kasbiy imkoniyatlarini baholash, xatolarni anglash va kasbiy rivojlanishga intilish bilan bog'liq jihatlar asosida yoritilgan. Shuningdek, psixologik tayyorgarlikni rivojlantirishda psixologik treninglar, interaktiv va simulyatsion mashg'ulotlar, pedagogik vaziyatlarni modellash, refleksiv texnologiyalar, stress-menejment va emotsional intellektni rivojlantirish usullaridan foydalanish zarurligi ko'rsatib berilgan. Raqamli ta'lim muhitining rivojlanishi sharoitida o'qituvchining psixologik moslashuvchanligi, virtual muloqotga tayyorligi va axborot yuklamalarini samarali boshqarish qobiliyatiga bo'lgan ehtiyoj ham alohida qayd etilgan. Maqolada psixologik yondashuvlarni pedagogik ta'lim mazmuniga tizimli integratsiya qilish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy moslashuvchanligi, pedagogik muloqot madaniyati, emotsional barqarorligi va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim omil sifatida talqin etilgan.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 17 August 2026

Approved: 19 August 2026

Volume: 19-A

Paper number: 7

KEYWORDS

interrogative sentence, pragmalinguistics, speech act, illocutionary force, indirect speech act, context, discourse, communicative intention, literary text

ANNOTATION

This article examines the psychological aspects of preparing prospective teachers for pedagogical activity, with particular attention to their role in the development of professional competencies and the effectiveness of future teaching practice. In the context of contemporary education, effective teacher preparation cannot be limited to the acquisition of theoretical knowledge and methodological skills; it also requires the systematic development of psychological readiness, emotional stability, communication skills, adaptability, and reflective abilities. The article emphasizes that prospective teachers are expected not only to organize the educational process and apply appropriate teaching methods, but also to respond effectively to diverse pedagogical situations, establish constructive relationships with learners, manage emotional stress, and continuously evaluate and improve their professional activities. Psychological readiness is considered as an integrated system consisting of cognitive, emotional-volitional, socio-psychological, and reflective components. The cognitive component includes analytical, critical, and creative thinking, problem-solving abilities, and independent decision-making skills, which are essential for responding appropriately to complex educational situations. The emotional-volitional component encompasses emotional stability, stress tolerance, patience, self-regulation, and the ability to maintain psychological balance under challenging professional conditions. The socio-psychological component involves empathy, tolerance, communicative competence, cooperation, interpersonal interaction, and the constructive resolution of conflicts. The reflective component is associated with the ability of prospective teachers to analyze their own pedagogical activities, recognize professional strengths and weaknesses, evaluate their decisions, identify mistakes, and develop strategies for continuous professional growth. Particular attention is given to the implementation of psychological training, interactive methods, simulation-based activities, pedagogical situation modeling, reflective technologies, stress-management techniques, and emotional intelligence development within teacher education programs. The article also highlights the increasing importance of psychological adaptability in the context of digital education, where virtual communication, distance learning, intensive information flows, and changing technological environments require teachers to develop new forms of psychological and communicative competence. The development of psychological readiness is viewed as a continuous process that should begin during higher education and continue throughout professional practice. Thus, psychological preparation should be regarded as an integral component of professional teacher education and as an important condition for preparing competent, adaptable, and professionally resilient educators capable of responding effectively to the changing demands of modern education.

Kirish

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri raqobatbardosh, ijodiy fikrlaydigan va psixologik jihatdan barqaror pedagog kadrlarni tayyorlashdan iborat. Pedagogik faoliyat inson bilan bevosita muloqotga asoslanganligi sababli,

uning samaradorligi o'qituvchining psixologik tayyorgarligiga bevosita bog'liqdir.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida an'anaviy ravishda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga ustuvor ahamiyat berilgan bo'lsa-da, bugungi kunda psixologik tayyorgarlik masalasi alohida dolzarb

ahamiyat kasb etmoqda. Chunki pedagog faoliyati faqat axborot yetkazish bilan cheklanmay, balki ta'lim oluvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va psixologik qo'llab-quvvatlanishini ham qamrab oladi.

Hozirgi globallashuv va jamiyat taraqqiyotining jadallashuvi sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ayniqsa, inson kapitali rivoji, intellektual salohiyatni yuksaltirish va barkamol shaxsni shakllantirish masalalari ta'lim sohasining ustuvor vazifasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida, bo'lajak o'qituvchilarni nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalar bilan, balki yuksak psixologik tayyorgarlikka ega holda shakllantirishni talab etadi. Zero, pedagogik faoliyatning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy-psixologik xususiyatlari, kommunikativ qobiliyati, emotsional barqarorligi va refleksiv tafakkuri bilan belgilanadi.

Pedagogik faoliyat tabiatan murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u doimiy ravishda insonlar bilan muloqot qilish, ularning ichki dunyosiga kirib borish, ta'lim oluvchilarning ehtiyoj va qiziqishlarini anglash hamda ularni rivojlantirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda psixologik aspektlar markaziy o'rin egallaydi. Bu aspektlar qatoriga shaxslararo munosabatlarni boshqarish, empatiya, stressga chidamlilik, pedagogik intuitsiya, kasbiy motivatsiya va o'z-o'zini anglash kabi muhim komponentlar kiradi.

Zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlari integratsiyasi natijasida pedagogik faoliyatga tayyorgarlik masalasiga yangicha yondashuvlar shakllanmoqda. Xususan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv va akmeologik yondashuvlar bo'lajak o'qituvchining nafaqat bilimdon, balki psixologik jihatdan barkamol mutaxassis sifatida shakllanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda talabanning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, uning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va kasbiy "Men" konsepsiyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik aspektlarini chuqur o'rganish, ularning kasbiy shakllanishida psixologik omillarning o'rni va ahamiyatini aniqlash dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash masalasi pedagogika, psixologiya va kasbiy ta'lim nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Mazkur muammo yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda pedagogning kasbiy tayyorgarligi faqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallash bilan cheklanmasligi, balki uning shaxsiy-psixologik xususiyatlari, kasbiy motivatsiyasi, kommunikativ qobiliyatlari, emotsional barqarorligi, refleksivligi va o'z faoliyatini mustaqil baholay olish qobiliyatlari bilan uzviy bog'liqligi ta'kidlanadi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak pedagogning kasbiy shakllanishini kompleks jarayon sifatida o'rganish zarurati yuzaga keladi.

B. Avalosning o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga bag'ishlangan ishlarida pedagogning professional shakllanishi uzluksiz jarayon sifatida talqin qilinadi. Muallif o'qituvchining kasbiy rivojlanishini faqat malaka oshirish yoki yangi bilimlarni o'zlashtirish bilan emas, balki uning pedagogik tajribasi, kasbiy faoliyatdagi o'zgarishlarga moslashuvi va o'z faoliyatini takomillashtirish jarayonlari bilan bog'laydi [1, 10-20 b.]. Mazkur qarash bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida kasbiy rivojlanishning psixologik asoslarini oldindan shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, pedagogik faoliyatga kirib kelayotgan yosh mutaxassisning yangi ijtimoiy va kasbiy muhitga moslashuvi uning psixologik tayyorgarlik darajasiga bevosita bog'liq bo'lishi mumkin.

A.A.Bodalevning muloqot psixologiyasiga oid qarashlari pedagogik faoliyatning kommunikativ tabiatini anglashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik faoliyat o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi doimiy muloqotga asoslanganligi sababli, muloqotning psixologik qonuniyatlarini bilish pedagog uchun zarur kasbiy kompetensiyalardan biri hisoblanadi [2, 256-b.]. Pedagogning suhbatdoshini tinglashi, uning holatini tushunishi, fikrini to'g'ri ifodalashi va vaziyatga mos kommunikativ strategiyani tanlay olishi ta'lim jarayonining psixologik samaradorligini belgilaydi. Shu jihatdan muloqot madaniyati bo'lajak o'qituvchining ijtimoiy-psixologik tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi mumkin.

L. Darling-Hammond tomonidan ilgari surilgan pedagogik ta'limga oid qarashlarda samarali ta'lim muhitini yaratish, o'qituvchining kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirish va ta'lim sifatini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi [3, 358-b.]. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, bo'lajak o'qituvchini pedagogik faoliyatga tayyorlashda faqat individual psixologik sifatlarni rivojlantirish emas, balki uning faoliyat yuritadigan ta'lim muhitini ham hisobga olish zarur. Chunki pedagogning psixologik holati, kasbiy motivatsiyasi va faoliyatga munosabati ta'lim muhitidagi ijtimoiy munosabatlarni, qo'llab-quvvatlash va kasbiy hamkorlik bilan chambarchas bog'liq.

E.F.Zerning professional rivojlanish psixologiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlari kasbiy shakllanishni dinamik jarayon sifatida ko'rish imkonini beradi. Muallifning konseptual qarashlaridan kelib chiqib, bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojlanishi bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, har bir bosqichda shaxsning kasbiy motivatsiyasi, o'z-o'zini anglash darajasi, kasbiy yo'nalganligi va moslashuvchanligi muhim ahamiyat kasb etadi [4, 290-b.]. Pedagogik ta'lim jarayonida mazkur jihatlarining izchil shakllantirilishi talabanning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga psixologik jihatdan tayyor bo'lishiga yordam beradi.

I.A.Zimnyaning pedagogik psixologiyaga oid asarlarida ta'lim jarayonining psixologik qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'zaro aloqasi hamda ta'lim jarayonida shaxsning rivojlanishi masalalari muhim o'rin egallaydi [5, 412-b.]. Mazkur yondashuv bo'lajak pedagogning psixologik tayyorgarligini ta'lim jarayonidan alohida holda emas, balki pedagogik faoliyatning umumiy psixologik mexanizmlari bilan birgalikda ko'rib chiqishni taqozo etadi. O'qituvchi ta'lim beruvchi subyekt sifatida o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini, motivatsiyasini, emotsional holatini hamda bilish jarayonlarini hisobga olishi lozim.

E.A.Klimovning kasbiy o'zini o'zi belgilash psixologiyasiga oid qarashlari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tanlovi va kasbiy identifikatsiyasi masalasini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega [6, 304-b.]. Kasbni tanlash bilan bir qatorda, shaxsning o'zini mazkur kasb vakili sifatida anglashi ham muhimdir. Bo'lajak pedagogda kasbiy "Men" obrazining shakllanishi uning kasbiy motivatsiyasi, o'z imkoniyatlariga ishonchi va kelajakdagi faoliyatiga munosabatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli pedagogik oliy ta'lim jarayonida talabanning kasbiy qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va kasbiy o'zligini shakllantirishga yo'naltirilgan psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratish muhimdir.

D.A.Leontyevning psixologik ma'no va shaxsning ichki motivatsion sohasi haqidagi qarashlari pedagogik kasbga bo'lgan munosabatni chuqurroq tushunish imkonini beradi [7, 511-b.]. Pedagogik faoliyatning samaradorligi ko'p jihatdan shaxsning o'z kasbiy faoliyatida ma'no topishi, uning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini anglab yetishi bilan bog'liq. Agar bo'lajak o'qituvchi pedagogik kasbini faqat tashqi majburiyat sifatida emas, balki shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat sifatida qabul qilsa, uning kasbiy motivatsiyasi va faoliyatga mas'uliyatli munosabati mustahkamlanadi.

Z.T.Raximovning talabalar texnologik kompetentligini shakllantirishga bag'ishlangan ishida zamonaviy ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati ko'rsatiladi [8, 210-216-b.]. Ushbu yondashuv bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda psixologik va kasbiy kompetensiyalarni o'zaro bog'liq holda rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Zamonaviy pedagogdan nafaqat predmetga oid bilim, balki texnologik vositalardan foydalanish, muammoli vaziyatlarga moslashish va yangi sharoitlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ham talab etiladi.

Z.T.Raximovning pedagogik imidjga bag'ishlangan ishida oliy ta'lim sharoitida pedagogning tashqi va ichki kasbiy qiyofasi masalalariga e'tibor qaratiladi [9, 179-184-b.]. Pedagogik imidj shaxsning o'zini namoyon etishi, muloqot madaniyati, kasbiy xulq-atvori va boshqalarda qoldiradigan taassuroti bilan bog'liq. Shu jihatdan pedagogik imidj bo'lajak o'qituvchining ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi bilan ham uzviy aloqador bo'lib, uning kommunikativ kompetensiyasi va o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishni talab qiladi.

Z.T.Raximov va S.Z.Toshemirovaning innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ishlarida zamonaviy pedagogning texnologik imkoniyatlari va innovatsion ta'lim jarayonidagi kasbiy ko'nikmalariga e'tibor qaratiladi [10, 93-98-b.]. Mazkur qarashlar bo'lajak o'qituvchini tayyorlash jarayonida psixologik moslashuvchanlik masalasining ham muhimligini ko'rsatadi. Chunki yangi pedagogik va raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish nafaqat texnik bilimni, balki yangilikni qabul qilish, noaniqlik sharoitida ishlash, mustaqil o'rganish va o'z faoliyatini qayta tashkil etish qobiliyatlarini ham talab etadi.

Z.T.Raximovning "Pedagogik ta'limda imidjning zarurati" nomli ishida pedagogik imidjning ta'lim jarayonidagi o'rni yana bir bor yoritilib, pedagog shaxsining kasbiy namoyon bo'lishi masalasiga urg'u beriladi [11, 58-64-b.]. Mazkur fikrlarni psixologik tayyorgarlik bilan bog'laganda, bo'lajak o'qituvchining o'zini anglash, o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish va kommunikativ vaziyatlarga moslashish qobiliyatlarini uning professional qiyofasini shakllantiruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. O'quv motivatsiyasiga bag'ishlangan Z.T.Raximovning ishida motivatsiyaning ta'lim oluvchi faoliyatidagi o'rni ochib beriladi [12, 43-49-b.]. Ushbu qarashlarni bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga tatbiq etish orqali motivatsiyaning pedagogik faoliyatning muhim psixologik mexanizmi sifatida ko'rish mumkin. Kasbiy motivatsiya yuqori bo'lgan talaba o'z bilimlarini mustaqil ravishda kengaytirishga,

amaliy tajriba orttirishga va pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishga ko'proq intiladi. Shuning uchun oliy pedagogik ta'limda kasbiy motivatsiyani qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish muhim ahamiyatga ega.

V.A.Slastenin, I.F.Isaev va E.N.Shiyonovlarning pedagogikaga oid ishlari o'qituvchining kasbiy faoliyati, pedagogik qobiliyatlari va ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy qonuniyatlari masalalari yoritilgan [13, 576-b.]. Mazkur nazariy qarashlar bo'lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligini faqat bilimlarni egallash jarayoni sifatida emas, balki shaxsiy va faoliyatga oid sifatlarning rivojlanishi bilan bog'liq murakkab pedagogik jarayon sifatida ko'rishga asos beradi. Pedagogik faoliyatning ko'p qirraliligi o'qituvchidan bilish, muloqot, tashkilotchilik, ijodkorlik va refleksiv qobiliyatlarning uyg'unligini talab qiladi.

V.V.Serikovning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasiga oid qarashlari bo'lajak o'qituvchining individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligini asoslash uchun muhim nazariy manba hisoblanadi [14, 284-b.]. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ta'lim oluvchini tayyorlashda uning individual ehtiyojlari, qiziqishlari, imkoniyatlari va rivojlanish sur'atlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Bunday yondashuvni bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayoniga tatbiq etish talabning o'z imkoniyatlarini anglashga, mustaqil qaror qabul qilishga va kasbiy rivojlanish yo'nalishini belgilashga imkon beradi.

A.V.Xutorskoyning kompetensiyaviy yondashuvga oid qarashlari pedagogik tayyorgarlikning natijasini faqat egallangan bilimlar hajmi bilan emas, balki ularni real kasbiy vaziyatlarda qo'llash qobiliyati bilan baholash zarurligini ko'rsatadi [15, 280-b.]. Shu nuqta nazardan, bo'lajak o'qituvchining psixologik tayyorgarligi ham amaliy kompetensiyalar bilan bog'liq holda shakllantirilishi lozim. Masalan, konflikt vaziyatni konstruktiv hal qilish, ta'lim oluvchi bilan samarali muloqot o'rnatish, stressli vaziyatlarda o'zini boshqarish va pedagogik vaziyatni refleksiv tahlil qilish kabi qobiliyatlari faqat nazariy bilimlar orqali emas, balki amaliy mashg'ulotlar va pedagogik vaziyatlarni modellashirish orqali rivojlantiriladi.

L.S.Shulmanning pedagogik faoliyat va o'qitishga tayyorgarlik masalalariga oid qarashlari pedagogik bilimning amaliy faoliyat bilan birligi masalasini yoritishga xizmat qiladi [16, 256-b.]. Pedagogning bilimni bilishi bilan uni ta'lim oluvchiga samarali yetkazib bera olishi o'rtasida muhim farq mavjud. Shu sababli bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda predmet bilimlari bilan bir qatorda pedagogik vaziyatlarni tushunish, ta'lim oluvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va tegishli pedagogik qarorlarni qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

J.Hattiening o'qitish samaradorligiga oid qarashlari esa pedagogik faoliyat natijasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tizimli ravishda ko'rib chiqish imkonini beradi [17, 312-b.]. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, o'qituvchining ta'lim jarayonidagi ta'siri uning bilim darajasi bilangina emas, balki o'quvchilar bilan munosabati, pedagogik strategiyalarni tanlashi, o'z faoliyatini baholashi va ta'lim natijalarini tahlil qilishi bilan ham belgilanadi. Demak, bo'lajak pedagoglarda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatini takomillashtirish uchun muhim shartlardan biridir.

Tahlil qilingan adabiyotlarda bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash masalasi bir nechta o'zaro bog'liq yo'nalishlar asosida yoritilgan. Birinchi yo'nalish pedagogning kognitiv tayyorgarligi bilan bog'liq bo'lib, unda tahliiliy va tanqidiy fikrlash, bilimlarni amaliyotda qo'llash hamda pedagogik vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatlari muhim hisoblanadi [5, 412-b., 15, 280-b.]. Ikkinchi yo'nalish emotsional-irodaviy tayyorgarlikni qamrab oladi. Unda stressli vaziyatlarga moslashish, o'zini boshqarish, sabr-toqat va emotsional barqarorlik kabi sifatlar pedagogik faoliyatning psixologik tayanchi sifatida qaratiladi [4, 290-b., 7, 511-b.]. Uchinchi yo'nalish ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik bo'lib, bunda kommunikativ kompetensiya, empatiya, tolerantlik va jamoaviy hamkorlikning ahamiyati ko'zga tashlanadi [2, 256-b.]. To'rtinchi yo'nalish esa refleksiv va motivatsion tayyorgarlik bilan bog'liq bo'lib, unda kasbiy "Men" konsepsiyasini shakllantirish, kasbiy ma'noni anglash, o'z faoliyatini tahlil qilish va kasbiy rivojlanishga intilish muhim o'rin tutadi [6, 304-b., 7, 511-b.].

Shunday qilib, mavjud ilmiy manbalarni tahlil qilish bo'lajak o'qituvchining pedagogik faoliyatga tayyorgarligini faqat kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalar bilan cheklash yetarli emasligini ko'rsatadi. Psixologik tayyorgarlikning kognitiv, emotsional-irodaviy, ijtimoiy-psixologik, motivatsion va refleksiv komponentlarini yagona tizim sifatida shakllantirish zarur. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik faoliyatning raqamli muhit, innovatsion texnologiyalar va o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liqligi bo'lajak o'qituvchidan psixologik moslashuvchanlik va uzluksiz kasbiy rivojlanishga tayyorlikni ham talab etadi [8, 210-216-b., 10, 93-98-b.]. Mazkur jihatlar bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik asoslarini yanada tizimli o'rganish zarurligini belgilaydi.

Metodologiya

Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik aspektlari doirasida ularning kognitiv jarayonlari (tafakkur, xotira, diqqat), emotsional-irodaviy sifatlari (sabr-toqat, qat'iyat, stressga bardosh), hamda ijtimoiy-psixologik kompetensiyalari (muloqot madaniyati, jamoada ishlash qobiliyati, konfliktlarni hal etish mahorati)ni rivojlantirish masalalari alohida ahamiyatga ega.

Mazkur muammoning dolzarbligi yana shundaki, zamonaviy ta'lim muhitida o'qituvchidan faqat bilim berish emas, balki tarbiya, psixologik qo'llab-quvvatlash, maslahatchilik va fasilitatorlik funksiyalarini ham bajarish talab etilmoqda. Bu esa uning psixologik tayyorgarligini yanada mustahkamlashni, shaxsiy va kasbiy sifatlarni uyg'un rivojlantirishni taqozo etadi. Ayniqsa, raqamli ta'lim muhiti, axborot oqimining ortishi va virtual muloqotning kengayishi o'qituvchining psixologik moslashuvchanligi va media-psixologik kompetensiyalarini rivojlantirishni talab qilmoqda. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik aspektlarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish, mazkur jarayonning mazmuni, mexanizmlari va samarali usullarini asoslab berish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Bu esa ta'lim tizimida yuqori malakali, psixologik barqaror va innovatsion fikrlaydigan pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi va quyidagi usullardan foydalaniladi:

Nazariy tahlil usuli – pedagogika va psixologiya sohasidagi ilmiy manbalarni o'rganish va umumlashtirish;

Qiyosiy tahlil – turli pedagogik yondashuvlarning psixologik jihatlarini solishtirish;

Tizimli yondashuv – bo'lajak o'qituvchilarning psixologik tayyorgarligini bir butun tizim sifatida tahlil qilish;

Modellashtirish usuli – psixologik tayyorgarlikning tarkibiy komponentlarini aniqlash va ular o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalash;

Pedagogik kuzatuv va umumlashtirish – ta'lim jarayonida kuzatilgan holatlar asosida xulosalar chiqarish.

Metodologik asos sifatida shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, refleksiv va akmeologik yondashuvlar qabul qilindi. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik aspektlarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llaniladi. Bu yondashuvlar orqali pedagog shaxsining kasbiy shakllanishi dinamik va ko'p qirrali jarayon sifatida talqin etiladi.

Tizimli yondashuv doirasida bo'lajak o'qituvchilarning psixologik tayyorgarligi bir butun tizim sifatida qaraldi. Ushbu tizimning tarkibiy qismlari — kognitiv, emotsional-irodaviy, ijtimoiy-psixologik va refleksiv komponentlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va funksional bog'liqlik ochib berildi. Bu esa tadqiqot obyekti faqat alohida elementlar yig'indisi sifatida emas, balki yaxlit dinamik struktura sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Shu bilan birga, modellashtirish usuli orqali bo'lajak o'qituvchilarning psixologik tayyorgarligini shakllantirish modeli ishlab chiqildi. Unda psixologik rivojlanish bosqichlari, ta'sir etuvchi omillar va natijaviy ko'rsatkichlar o'zaro bog'liq holda ifodalandi. Modellashtirish jarayonida kasbiy rivojlanishning prognostik jihatlariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Qiyosiy tahlil usuli yordamida an'anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning psixologik samaradorligi taqqoslanadi. Bu orqali innovatsion ta'lim texnologiyalarining bo'lajak o'qituvchilar psixologiyasiga ta'siri aniqlanadi.

Metodologik jihatdan yana bir muhim yo'nalish – refleksiv tahlil bo'lib, u orqali pedagog shaxsining o'z-o'zini anglash, o'z faoliyatini baholash va takomillashtirish mexanizmlari o'rganildi. Bu usul kasbiy "Men-konsepsiya"ni shakllantirish jarayonini chuqur anglash imkonini berdi.

Natijalar

Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik jihatlarini murakkab, ko'p bosqichli va o'zaro bog'liq jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayon shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, ichki imkoniyatlari, tashqi ta'sirlar hamda ta'lim muhitining o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadi. Pedagogik faoliyatga psixologik tayyorgarlik faqatgina muayyan bilim va ko'nikmalarni egallash bilan chegaralanmay, balki bo'lajak o'qituvchining fikrlash faoliyati, emotsional holatini boshqarishi, boshqa insonlar bilan samarali munosabat o'rnatishi va o'z faoliyatiga tanqidiy yondasha olish qobiliyatlarini ham qamrab oladi. Shu jihatdan pedagogik tayyorgarlikning psixologik tarkibiy qismlarini kompleks ravishda rivojlantirish bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatga moslashuvi va pedagogik vazifalarni samarali bajarishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning psixologik tayyorgarligida, avvalo, kognitiv rivojlanish muhim o'rin egallaydi. Kognitiv komponent pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilish jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, unda tahlil va sintez qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni anglash hamda ularni maqbul

usullar orqali hal qilish qobiliyatlari mujassamlashadi [14]. Pedagogik jarayon davomida o'qituvchi turli xil vaziyatlarga duch keladi va ularning har birida mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish, sabab va oqibatlarni aniqlash, bir nechta muqobil yechimlarni ko'rib chiqish hamda eng maqbul qarorni tanlash talab etiladi. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarda yuqori darajadagi kognitiv faollikning shakllanganligi pedagogik vazifalarni mustaqil va ijodiy hal qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar, yangi metodlar va raqamli vositalardan foydalanish uchun o'qituvchining yangilikni qabul qilish, uni tahlil qilish va amaliyotga moslashtirish qobiliyati muhim hisoblanadi.

Psixologik tayyorgarlikning yana bir muhim tarkibiy qismi emotsional-irodaviy komponentdir. Pedagogik faoliyat insonlar bilan doimiy muloqot, turli xarakter va ehtiyojlarga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash, kutilmagan vaziyatlarga moslashish hamda mas'uliyatni qarorlar qabul qilishni talab etadi. Shu sababli bo'lajak o'qituvchida stressga bardoshlilik, emotsional barqarorlik, sabr-toqat va o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish qobiliyatlarining rivojlanganligi kasbiy faoliyatning barqarorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi [16]. Emotsional-irodaviy jihatdan yetuk pedagog murakkab vaziyatlarda o'z hissiyotlarini boshqarib, vaziyatga xolis va konstruktiv munosabat bildiradi. Bunday qobiliyat pedagogik muloqotda ortiqcha emotsional zo'rliqlarning oldini olish, nizoli vaziyatlarni yumshatish va ta'lim jarayonida qulay psixologik muhitni saqlash imkonini beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatga tayyorgarligida ijtimoiy-psixologik komponent ham alohida ahamiyatga ega. Mazkur komponent pedagogning o'quvchilar, hamkasblar, ota-onalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan samarali munosabat o'rnatish qobiliyatini belgilaydi. Empatiya, tolerantlik, kommunikativ kompetensiya hamda konfliktlarni konstruktiv hal qilish qobiliyati ushbu komponentning asosiy tarkibiy jihatlarini tashkil etadi [15]. Empatiya pedagogga o'quvchining hissiy holati va ehtiyojlarini to'g'ri anglash imkonini bersa, tolerantlik turli individual xususiyat va qarashlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishni ta'minlaydi. Kommunikativ kompetensiyaning rivojlanganligi esa pedagogik axborotni aniq va tushunarli yetkazish, faol tinglash, savol-javob jarayonini samarali tashkil etish hamda o'quvchilar bilan ijobiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, konfliktlarni konstruktiv hal qilish qobiliyati pedagogik jamoada va o'quvchilar bilan munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kelishmovchiliklarni salbiy oqibatlarsiz bartaraf etishga yordam beradi.

Psixologik tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismlaridan yana biri refleksiv komponent hisoblanadi. Refleksiya bo'lajak o'qituvchining o'z faoliyati, xatti-harakatlari, qarorlari va pedagogik yondashuvlarini anglash hamda tahlil qilish jarayonini ifodalaydi. Refleksiv qobiliyatlarning rivojlanganligi pedagogga o'zining kuchli va zaif jihatlarini aniqlash, yo'l qo'yilgan xatolar sabablarini tushunish va keyingi faoliyatini takomillashtirish imkonini beradi [14]. Bunda o'z faoliyatini tahlil qilish, kasbiy o'sishga intilish va "Men-konsepsiya"ni shakllantirish muhim o'rin tutadi. O'z faoliyatiga refleksiv yondasha oladigan bo'lajak o'qituvchi pedagogik tajribani shunchaki o'zlashtirib qolmay, balki uni tahliliy jihatdan qayta ko'rib chiqadi va kelgusidagi faoliyati uchun zarur xulosalarni shakllantiradi. Bu jarayon kasbiy o'zini anglash va uzluksiz kasbiy rivojlanishning muhim psixologik mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur komponentlar bir-biridan alohida holda emas, balki o'zaro uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Kognitiv imkoniyatlarning rivojlanganligi pedagogik vaziyatlarni to'g'ri anglash va tahlil qilishga zamin yaratib, emotsional-irodaviy barqarorlik ushbu vaziyatlarda oqilona va vazmin harakat qilish imkonini beradi. Ijtimoiy-psixologik kompetensiyalar pedagogning boshqa shaxslar bilan samarali hamkorlik qilishini ta'minlasa, refleksiya o'z faoliyatini baholash va uni takomillashtirishga yo'naltiradi. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida ushbu komponentlarning har birini izchil shakllantirish bilan bir qatorda, ularning o'zaro uyg'un rivojlanishiga ham alohida e'tibor qaratish zarur.

Bo'lajak o'qituvchining psixologik tayyorgarligi uning pedagogik faoliyatga kirishishi, kasbiy vazifalarni samarali bajarishi va ta'lim jarayonidagi turli vaziyatlarga moslashish imkoniyatlarini belgilovchi muhim omillardan biridir. Kognitiv, emotsional-irodaviy, ijtimoiy-psixologik va refleksiv komponentlarning uyg'un shakllanishi pedagog shaxsining kasbiy yetukligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday kompleks yondashuv bo'lajak o'qituvchining nafaqat bilimli mutaxassis, balki psixologik jihatdan barqaror, muloqotga kirishuvchan, o'z faoliyatini tanqidiy baholay oladigan va kasbiy rivojlanishga intiluvchi pedagog sifatida shakllanishiga imkon yaratadi.

Muhokama

Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida psixologik jihatlariga yetarlicha e'tibor qaratilmasligi kelgusidagi kasbiy

faoliyatda turli muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Pedagogik faoliyat yuqori darajadagi mas'uliyat, doimiy muloqot, turli vaziyatlarga tez moslashish va hissiy zo'rliqlarni boshqarish qobiliyatini talab etadi. Shu sababli bo'lajak o'qituvchining faqat nazariy bilimlarga ega bo'lishi uning kasbiy faoliyatga to'liq tayyorligini anglatmaydi. Pedagog o'z bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llay olishi bilan bir qatorda, stressli holatlarda o'zini boshqarishi, o'quvchilar bilan samarali muloqot qilishi, turli pedagogik vaziyatlarda maqbul qarorlar qabul qilishi va kasbiy motivatsiyasini saqlab qolishi zarur.

Psixologik tayyorgarlikning yetarli darajada shakllanmaganligi, avvalo, stressga chidamlilikning pastligi, kommunikativ qiyinchiliklar, o'ziga bo'lgan ishonchning susayishi va kasbiy motivatsiyaning pasayishida namoyon bo'lishi mumkin. Ayniqsa, pedagogik faoliyatning dastlabki bosqichida yosh o'qituvchi yangi mehnat sharoitiga moslashish, o'quvchilar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish, ta'lim jarayonini mustaqil tashkil etish va pedagogik mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi bir qator vazifalarga duch keladi. Agar bunday vaziyatlarga psixologik jihatdan tayyorgarlik yetarli bo'lmasa, kasbiy zo'rliqlar kuchayishi va pedagogik faoliyat samaradorligi pasayishi mumkin.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarning psixologik tayyorgarligini shakllantirishda faol va amaliy metodlardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim jarayoniga psixologik treninglar, interaktiv metodlar, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar va simulyatsion mashg'ulotlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir [8, 9, 10, 11, 12]. Bunday faoliyat shakllari bo'lajak o'qituvchilarga nazariy bilimlarni real pedagogik vaziyatlarga yaqin sharoitlarda qo'llash, o'z xatti-harakatlarini kuzatish va turli vaziyatlarda tegishli qarorlarni qabul qilish tajribasini shakllantirish imkonini beradi. Ayniqsa, pedagogik vaziyatlarni modelashtirish orqali kommunikativ, emotsional va irodaviy ko'nikmalarni amaliy jihatdan rivojlantirish mumkin.

Psixologik tayyorgarlikni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri refleksiv faoliyatni shakllantirish hisoblanadi. Refleksiv texnologiyalar yordamida bo'lajak o'qituvchi o'z faoliyati, qarorlari, muloqot uslubi va pedagogik xatti-harakatlarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'z faoliyatini muntazam baholash pedagogik vaziyatlarda yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlash, ularning sabablarini anglash va kelgusida samaraliroq strategiyalarni tanlashga yordam beradi. Shu bilan birga, refleksiv yondashuv bo'lajak pedagogning o'z imkoniyatlarini real baholashi, kasbiy maqsadlarini belgilashi va uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirishga intilishini kuchaytiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarning psixologik tayyorgarligida kasbiy motivatsiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi ta'lim muhitini yaratish ham muhim ahamiyatga ega. Kasbiy motivatsiya o'qituvchining pedagogik faoliyatga munosabati, o'z kasbining ijtimoiy ahamiyatini anglashi, kasbiy maqsadlarni belgilashi va o'z ustida ishlashga bo'lgan intilishida namoyon bo'ladi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida talabalarni pedagogik kasbning real mazmuni bilan tanishtirish, kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish, muvaffaqiyatli pedagogik tajribalarni o'rganish va o'z kasbiy imkoniyatlarini namoyon etishga sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Qo'llab-quvvatlovchi va ijobiy psixologik muhit esa talabaning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlab, kasbiy rivojlanishga bo'lgan ichki ehtiyojini kuchaytiradi.

Shuningdek, psixologik tayyorgarlikni shakllantirish jarayonida stress-menejment va emotsional intellektni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Pedagog o'z hissiy holatini anglay olishi, emotsiyalarini boshqarishi, stress omillarini aniqlashi va murakkab vaziyatlarda o'zini nazorat qila olishi kerak. Emotsional intellektning rivojlanganligi o'qituvchiga nafaqat o'z kechinmalarini boshqarish, balki o'quvchilarning hissiy holatini tushunish va ularga mos pedagogik yondashuvni tanlash imkonini beradi. Stress-menejment ko'nikmalarining shakllanganligi esa kasbiy zo'rliqlarni konstruktiv boshqarish va pedagogik faoliyatda barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi [17].

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy roli ham sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Bugungi pedagog faqat bilim va axborotni yetkazib beruvchi shaxs sifatida emas, balki ta'lim jarayonini tashkil etuvchi fasilitator, o'quvchilarga yo'nalish beruvchi maslahatchi va ularning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Bunday sharoitda o'qituvchidan yuqori darajadagi kommunikativ, emotsional va ijtimoiy-psixologik kompetensiyalar talab etiladi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida faqat kognitiv bilimlarni egallashga ustuvor ahamiyat berilishi bo'lajak pedagoglarning psixologik jihatdan yetarlicha tayyorlanmasligiga olib kelishi mumkin. Natijada kasbiy faoliyat davomida stress, kasbiy zo'rliqlar va "burnout" holatlari, kommunikativ qiyinchiliklar hamda kasbiy motivatsiyaning pasayishi kabi muammolar yuzaga kelishi ehtimoli ortadi [7].

Shu bois psixologik tayyorgarlikni shakllantirish uzluksiz jarayon sifatida tashkil etilishi zarur. Mazkur jarayon oliy ta'lim bosqichidan

boshlanib, pedagogik amaliyot, ish faoliyatining dastlabki davri va keyingi kasbiy rivojlanish bosqichlarida izchil davom ettirilishi lozim. Nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan birlashtirish, treninglar, simulyatsion mashg'ulotlar, pedagogik vaziyatlarni modellash va reflektiv tahlillardan foydalanish psixologik tayyorgarlikning amaliy samaradorligini oshiradi. Bunday yondashuv bo'lajak o'qituvchiga real kasbiy vaziyatlarga oldindan tayyorlanish, o'z imkoniyatlarini sinab ko'rish va turli pedagogik muammolarni mustaqil hal qilish tajribasini shakllantirish imkonini beradi.

Raqamli ta'lim muhitining kengayishi sharoitida o'qituvchining psixologik moslashuvchanligi ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Masofaviy ta'lim, virtual muloqot, raqamli platformalardan foydalanish va axborot oqimining keskin ortishi pedagog faoliyatining mazmuniga yangi talablarni kiritmoqda. Bunday sharoitda o'qituvchi an'anaviy pedagogik muloqotdan tashqari virtual kommunikatsiya xususiyatlarini tushunishi, raqamli muhitdagi emotsional holatlarni hisobga olishi va yangi ta'lim sharoitlariga psixologik jihatdan moslasha olishi zarur. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida an'anaviy psixologik tayyorgarlik bilan bir qatorda, raqamli ta'lim muhitida faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan psixologik moslashuvchanlik va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish ham muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda psixologik jihatlarini tizimli ravishda rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Psixologik treninglar, interaktiv va simulyatsion mashg'ulotlar, reflektiv texnologiyalar, stress-menejment, emotsional intellekt va kasbiy motivatsiyani rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarning uyg'un qo'llanilishi bo'lajak pedagoglarning kasbiy moslashuvchanligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli ta'limning rivojlanishi pedagogning psixologik kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarni yanada kengaytirayotganligi mazkur yo'nalishda yangi ilmiy-metodik izlanishlarni davom ettirish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa

Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida psixologik yondashuvlardan foydalanish kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning mazmuni nafaqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni, balki shaxsning psixologik barqarorligi, muloqotga kirishish qobiliyati, o'z faoliyatini tahlil qila olishi va turli pedagogik vaziyatlarga moslasha olish imkoniyatlarini ham qamrab oladi. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida psixologik jihatlarini kasbiy tayyorgarlikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qarash muhimdir.

Psixologik tayyorgarlik o'zaro bog'liq bo'lgan kognitiv, emotsional-irodaviy, ijtimoiy-psixologik va reflektiv komponentlarning yaxlit tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Kognitiv komponent pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini rivojlantirsa, emotsional-irodaviy komponent stressli vaziyatlarda o'zini boshqarish, sabr-toqat va psixologik barqarorlikni

ta'minlaydi. Ijtimoiy-psixologik komponent samarali pedagogik muloqot, empatiya, tolerantlik va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Reflektiv komponent esa bo'lajak o'qituvchining o'z faoliyati va kasbiy imkoniyatlarini tahlil qilishi, xatolarini anglash hamda o'z-o'zini rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi. Mazkur komponentlarning uyg'un rivojlanishi pedagogning kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorligini mustahkamlaydi.

Pedagogik ta'lim jarayonida psixologik yondashuvlarni kuchaytirish uchun an'anaviy nazariy tayyorgarlikni amaliy metodlar bilan uyg'unlashtirish muhimdir. Psixologik treninglar, interaktiv mashg'ulotlar, pedagogik vaziyatlarni modellash, simulyatsion texnologiyalar, reflektiv topshiriqlar va amaliy mashqlar bo'lajak o'qituvchilarning turli kasbiy vaziyatlarga tayyorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, emotsional intellekt, stress-menejment, kommunikativ kompetensiya va reflektiv qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni ta'lim dasturlariga tizimli ravishda kiritish pedagogik faoliyatning psixologik jihatdan puxta o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Psixologik tayyorgarlikni shakllantirish bir martalik jarayon emas, balki uzluksiz davom etadigan kasbiy rivojlanish jarayonidir. Uning asosiy poydevori oliy ta'lim davrida shakllantirilsa-da, mazkur kompetensiyalar pedagogik faoliyat davomida muntazam ravishda takomillashtirib borilishi zarur. Chunki ta'lim jarayonining mazmuni, pedagogik texnologiyalar, o'quvchilarning ehtiyojlari va ijtimoiy muhitning o'zgarishi o'qituvchidan yangi psixologik va kasbiy kompetensiyalarni egallashni talab qiladi. Shu jihatdan o'qituvchining o'z ustida ishlashi, kasbiy tajribasini tahlil qilishi va yangi pedagogik vaziyatlarga moslashishi uning psixologik tayyorgarligini doimiy ravishda rivojlantirib borishga imkon beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarning psixologik tayyorgarligini kompleks va tizimli ravishda rivojlantirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, pedagogik faoliyatga moslashish jarayonini yengillashtiradi. Psixologik jihatdan tayyor pedagog o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishi, ta'lim jarayonidagi murakkab vaziyatlarni konstruktiv hal qilishi, o'z emotsional holatini boshqarishi va kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini mustaqil belgilashi mumkin. Bu esa ta'lim sifatini oshirish, pedagogik jarayonda qulay psixologik muhitni shakllantirish hamda zamonaviy talablarga javob beradigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarning psixologik tayyorgarligini yanada takomillashtirish uchun uning samaradorligini amaliy va eksperimental jihatdan baholash, turli ta'lim sharoitlarida psixologik tayyorgarlikning namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlash hamda samarali pedagogik-psixologik texnologiyalarni ishlab chiqish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishdagi izlanishlar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga va pedagogik ta'lim mazmunini zamonaviy psixologik talablar asosida boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Avalos B. Teacher Professional Development in Teaching and Teacher Education. // Teaching and Teacher Education. – 2016. – Vol. 27. – P. 10–20.
2. Бодаев А.А. Психология общения. – СПб.: Питер, 2020. – 256 с.
3. Darling-Hammond L. The Right to Learn: A Blueprint for Creating Schools that Work. – San Francisco: Jossey-Bass, 2017. – 358 p.
4. Зеер Э.Ф. Психология профессионального развития. – Екатеринбург: УрФУ, 2018. – 290 с.
5. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – М.: Юрайт, 2019. – 412 с.
6. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. – М.: Юрайт, 2019. – 304 с.
7. Леонтьев Д.А. Психология смысла: природа, строение и динамика смысловой реальности. – М.: Смысл, 2019. – 511 с.
8. Rakhimov Z.T. Features of formation of students' technological competence / "PEDAGOGS" international research journal. ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995. Volume-70, Issue-2, November -2024. P. 210-216. <https://scientific-jl.org/ped/issue/view/120>
9. Rakhimov Z.T. "Pedagogical image and its necessity in higher education" World scientific research journal International scientific electronic journal Volume-47 Issue-1 January – 2026. P.179-184

10. Rakhimov Z.T., Toshtemirova S.Z. Teacher skills in using innovative technologies in higher education // Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi jurnali. 45-son 1-to'plam - 2025. 93-98-b.

11. Raximov Z.T. "Pedagogik ta'limda imidjning zarurati" Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi *Xalqaro ilmiy elektron jurnal* 61-son _ 2-to'plam – 2026. 58-64-b. <https://journalss.org/index.php/tal/issue/view/234>

12. Raximov Z.T. "O'quv motivatsiyasi tushunchasi va uning boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatidagi o'rni" Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi *Xalqaro ilmiy elektron jurnal* 61-son _ 2-to'plam – 2026. 43-49-b. <https://journalss.org/index.php/tal/issue/view/234>

13. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. – М.: Академия, 2017. – 576 с.

14. Сериков В.В. Личностно-ориентированное образование: теория и практика. – Волгоград: Перемена, 2017. – 284 с.

15. Хуторской А.В. Компетентный подход в образовании. – М.: Эйдос, 2017. – 280 с.

16. Shulman L.S. Learning to Teach: Foundations of Teaching. – New York: Routledge, 2018. – 256 p.

17. Hattie J. Visible Learning for Teachers. – London: Routledge, 2017. – 312 p.